

Toshkent shahar «Bilim» axborot-kutubxona markazi

Axborot-bibliografiya xizmati

Ilmiy-metodika xizmati

Milliy romançılığımız asoschisi

ABDULLA QODIRIY

tavalludining 126 yilligiga bag'ishlanadi

(1894-1938)



USLUBIY-BIBLIOGRAFIK QO'LLANMA


Toshkent-2020

78.5

A 12

Abdulla Qodiriy – o'zbek milliy an'analarining kuychisi [Matn] :
uslubiy-bibliografik qo'llanma / Tuzuvchi : M. Xudoyberdiyeva ; Muharrir
V. Muratova – Toshkent, 2020 . – 18 b.

Ushbu qo'llanma Abdulla Qodiriy shaxsiyati va ijodini yanada mukammalroq tushunishimizga katta yordam beradi. Shuningdek, u adibning talanti va ijod mahorati sirlarini o'rganishda tadqiqotchilarga va keng kitobxonlar ommasiga muhim manba bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Uslubiy-bibliografik qo'llanmamiz Abdulla Qodiriy 126 yil tavalludiga bag'ishlanadi.



Muqaddima

Prezidentimiz tomonidan xalqimizning ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan ko'p yillik mashaqqatli kurashini haqqoniy va to'laqonli aks ettirish, mustabid tuzum davridagi ommaviy qatag'onlar tufayli qurban bo'lgan, insonlik sha'ni, qadr-qimmati toptalgan vatandoshlarimizning hurmati va hotirasini joyiga qo'yish, fuqarolarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish va ularning bizga qoldirgan boy meroslarini o'rganish hamda targ'ib qilishga asosiy e'tiborini qaratish maqsadida qator vazifalar yuklatildi. Ularga ko'ra Qatag'on qurbanlaridan biri hisoblangan buyuk so'z ustasi Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish va aholi o'rtasida keng targib qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Yozuvchining yaratgan ma'naviy dunyosi uning asarlarini o'quvchi kitobxonlarning qalbiga ma'naviy ozuqa yetkazib bera oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning asarlarida biz doimo ma'naviy xazina sirini topa olamiz. Abdulla Qodiriy asarlari kitobxonlarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy O'zbekistonning ma'naviy boyligini mustahkamlashga alohida hissa qo'shdi, yurtimizda ehtimol Qodiriy kitobi bo'limgan oila bo'lmasa kerak. Qodiriy iste'dodining kuchi shu darajada ko'lamli ediki, u nafaqat o'zbek romanchiligiga asos soldi, nafaqat Behbudiy, Fitrat, Hamza va Cho'lponlar bilan birgalikda yangi o'zbek adabiyoti tamal toshini qo'ydi, ayni damda, qardosh turkiy xalqlar nasriga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu fikrlarni zamonamizning zabardast ijodkori, O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ham tasdiqlaydi. U – ozodlik kuychisi, nafaqat O'zbek xalqining balki, O'rta Osiyodagi barcha xalqlarning sevimli yozuvchilaridan biridir.

Vazirlar Mahkamasining Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi farmoyishiga muvofiq, Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan adabiy muzey, ijodiy maktab, kutubxona barpo etish, adibning mahobatli haykalini o'rnatish va yozuvchi yashab ijod qilgan uyda Abdulla Qodiriy uy-muzeyi tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari 2019-yilning aprel oyida "Abdulla Qodiriy ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati" mavzusida ilmiy konferensiya hamda adib tavalludiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Toshkent shahar «Bilim» axborot kutubxona markazi axborot-bibliografiya hamda ilmiy-metodika xizmati mutaxassislari tomonidan "O'zbek milliy an'analarining kuychisi" nomli uslubiy-bibliografik qo'llanma tayyorlandi. Qo'llanmani e'tiboringizga havola qilamiz. Qo'llanma quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi
2. Abdulla Qodiriy haqida fikrlar
3. Tuman AKM mutahassislari uchun maxsus tavsiyaviy ro'yhat
4. Abdulla Qodiriy asarlari o'zbek va rus tilida
5. Abdulla Qodiriy haqida yozilgan asarlar o'zbek va rus tilida
6. Abdulla Qodiriy haqida internet resurs ma'lumotlari



O'zbek tili kambag' al emas, balki o'zbek tilini kambag' al deguvchilarning o'zi kambag' al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'n kamasinlar»

Abdulla Qodiriy

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi

Adabiyot olami kengdir. Undagi turfa manzillar ham ko'p. Shunga ko'ra ba'zi ijodkorlar nazmiy saroyga tashrif buyursalar, ba'zilari nasriy koshonadan joy egallaydi. Biroq shundaylar borki, ular uchun har ikkala maskan ham birdek qadrdon. Millatimiz ma'naviy xazinasini «O'tkan kunlar» u «Mehrobdan chayon» kabi bebaho asarlar bilan boyitgan, o'zbek romanchiligining asoschis deya ta'riflangan Abdulla Qodiriy ana shunday serqirra ijodkorlaridan.

Ko'p yillar davomida o'zbek xalqi orzu qilgan mustaqillikka erishish tufayli tariximizni, madaniyatimizni va ma'naviy o'tmishimizni o'rganishga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Qatag'onga uchrab, halok etgan ko'pgina ziyorolarimiz mustaqillik shamoli tufayli qaytadan hayotga qaytarilmoqda, ular haqidagi haqiqat yuzaga chiqmoqda. Bu yil o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondalari va asoschilaridan biri, yozuvchi, jurnalist, tarjimon Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini nishonlaymiz.

XX asr o'zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, Abdulla Qodiriy – yorqin, barchaga keng ma'lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publist, buyuk romannavis 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ildi. 1904 yili eski maktabda va 1906 yilda rus-tuzem maktabida o'qidi. Oilasi kambag'allahsgani sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qildi. So'ngra eski shahar ozuqa komitetining sarkotibi, "Oziq ishlari" gazetasining muharriri, "Mushtum" jurnalining tashkilotchisi va taxrir hay'ati a'zosi bo'lib ishladi. 1923-26 yillarda Moskvadagi Bryusov nomli adabiyot institutida o'qidi.

Abdulla Qodiriy o'z xalqining hayotini birovlar orqali va kitoblardan bilgan emas, u bevosita odamlar bilan suhbat qurib, ularning alohida jihatlarini o'ziga singdirgan. U Navoiy, Lutfiy, Muqimiyl, Furqat, Cho'lpon, Fitrat va boshqa o'zbek adabiyoti mumtoz ijodkorlarining asarları mutolaasi bilan qiziqadi.

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi garchand XX asr tarixinining fojiali saxifalari bilan tutashib ketgan, shu asrning mashaqqatli, suronli va o'ta tashvishli so'qmoqlarida kechgan bo'lsada u adabiy hodisa sifatida bizga zamondosh asr qobig'ini yorib, bir tomonidan, XIX asr hayoti ikkinchi tomonidan, XIX asr adabiyoti va san'ati bilan uzviy aloqaga kirishadi. Abdulla Qodiriy singari 30 - yillarda qatag'onga uchragan o'zbek yozuvchilarining merosi, shak-shubxasiz, bizga to'la ravishda yetib kelmadı. Bugun o'zbek adabiyotining fidoyi muxlislari Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon singari sovet davrida qatag'on qilingan yozuvchilarning

adabiy merosini to‘plash va xalqqa qaytarish to‘g‘risida amaliy ishlarni olib borar ekanlar, ayni paytda adabiyotimizga milliy rujni qaytarish, adabiyotimizning ko‘xna milliy ildizlarini ardoqlash va ularga yangi nafas bag‘ishlash ustida ham qayg‘urmoqdalar.

Abdulla Qodiriy o‘zbek kitobxoniga dastavval ikki mashhur romani – “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari bilan ma’lumdir. Shubxasiz, kitobxonlar uning “Obid ketmon” qissasi va qator xajviy asarlarini ham yaxshi biladilar. Adibning asarlari “Julqunboy”, “Dunbulboy”, “Jiyan”, ”Ovsar”, “Shilg‘ay” va “Shakkok” kabi taxalluslar bilan vaqtli matbuotda chop etilgan.

Xalqimizning Abdulla Qodiriy kabi buyuk farzandlari tamonidan bizga qoldirgan merosi katta ahamiyatga molikdir. Chunki ular hayoti va ijodiy mahsuloti yaqin o‘tmishimiz manzarasining muhim tamonigina emas, bugungi hayotimizning ham zarur unsuridir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon o‘tgan yillarda tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, an’analarimizni tiklash borasida ozmuncha ishlar qilinmadni va bu hamon uzlusiz davom ettirilayotgan ko‘z oldimizda ro‘y berayotgan ortiqcha talab qilmaydigan xayotiy haqiqatdir.

Mustaqillik shamoli tufayli ijodiy taqdirlari murakkab bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon va xalqimizning boshqa bir qator unitilayozgan aziz farzandlari ijodini mukammal o‘rganishiga imkon tug‘ildi. Abdulla Qodiriy istiqlol davriga kelib chin ma’noda hurmat va e’zozga kirdi. 1990 yilda birinchi Prezidentimiz farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta’sis etildi. 1991 yili esa Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. 1994 yili – Mustaqillikning uchinchi yilida unga “Mustaqillik” ordeni berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko‘chalar, bog‘lar, maktablar, kutubxona va institutlar yozuvchining tabarruk nomi bilan ataladi.

Abdulla Qodiriydagi tarixiy mavzuga bo‘lgan qizqishi o‘z xalqining o‘tmishini tushunishga bo‘lgan intilishi, uning sabri, mehnatkashligi, xalqning ozodlik va mustaqillik sari qahramonona kurashi bilan izohlanadi. Qodiriyning ijodiy javohiri — “O‘tgan kunlar” (1926) va “Mehrobdan chayon” (1929) tarixiy romanlari - o‘zbek adabiyoti tarixiy mavzuidagi ilk asarlar.

1961 yil rus tilida chop etilgan “Mehrobdan chayon” romanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, yozuvchi o‘zbek xalqi hayoti va tarixini, davr ranglarini yorqin va sidqidildan ifoda etib bera olgan, qahramonlar fe’l-atvorini XIX asrning 40-yillariga xos sharoitlarda ochib bera olgan.

Ushbu yangilikni ochishda Abdulla Qodiriy o‘zbek tarixiy romannafisligiga asos soladi. O‘zining “Mehrobdan chayon” romanida yozuvchi haqiqat yo‘nalishi an’analarini sezilarli boyitgan, qahramonlarning psixologik shakliga muhim hissa

qo'shgan, insonning ichki dunyosini ifoda etishning yangi usullarini ochgan, qahramonlarning fe'l-atvori o'zgarishini ko'rsatib bergan.

"**Mehrobdan chayon**" romani - ikki asr bo'sag'asidagi turkiston jamiyatining ijtimoiy, axloqiy hayoti haqidagi roj-ro'st asar.

A. Qodiriy xalqning feodal tuzumdagi hayot tarzining o'ziga xos mohiyatini ochib berishga intilgan, hukmdorlarning ishlarini va fe'l-atvorini, ma'naviy ustozlarni ko'rsatadi. Ushbu ziddiyatlar tantanavor emas, ular qahramonlarning og'ir turmushidan kelib chiqadi – Abdurahmonning ayolni o'ziga bo'ysundirish istagi va Shohidbekning fitnalariga qaramay, Anvar va Ra'no bir-birini chinakam sevadi va oila qurishga harakat qiladi.

Go'zallik, halollik, oljanoblikka intiluvchi Ra'noning xalq fe'l-atvoriga xos, ajoyib qiz ko'rinishini namoyon bo'ladi - samimiyl, toza niyatli, ma'nana sodda va ochiq. U Anvarni toza, yorqin sevgi ila beg'araz va sadoqat bilan yaxshi ko'radi. Anvar - mardlik timsoli, adolatl, cheskiz vijdon egasi.

Abdulla Qodiriy zamondoshlari haqidagi "**Obid ketmon**" romani, shov-shuvga sabab bo'lgan "Shirvonlik Mallaboy aka" ocherki muallifi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixiga sezilarli hissa qo'shgan boshqa ko'plab ocherk va hikoyalar muallifi. "Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga momaqaldiroq kabi kirib kelib, yorqin chaqmoq kabi barchaning e'tiborini o'ziga qaratdi", deb yozadi Izzat Sultonov.

Ushbu so'zlarning haqqoniyligini qozoq yozuvchisi Muxtor Auezov ta'kidlab, alohida qayt etadi: "Yoshligimizda Abdulla Qodiriy romanlarini berilib o'qir edik. Biz uning inson fe'l-atvorini yashash, bizgacha inson ehtiroslarining tug'yonini yetkazib berish mahoratidan hayratlanardik". O'zbek adabiyotida roman janrining asoschisi Abdulla Qodiriyning ko'plab asarlari ko'plab Sharq hamda MDH mamlakatlarida e'tirof qozondi.

"O'tgan kunlar" romani

Unda muallif Toshkent hukmdori Azizbek mulkidagi xalq an'analar, diniy urfatdarlar, yozilmagan qonunlarni, inson huquqlari va qadr-qimmatlarining buzilishi haqida bayon etadi. Mug'ombir fitnachi, "gunohkor" larga nisbatan qattiqko'l "qozi", uddabiron munofiq Azizbek uch yil Toshkentni shunday boshqaradiki, savdo-sotiq pasayib, usta-hunarmandlar xonavayron bo'lishadi, guruch va paxta hosildorligi sezilarli tushib ketadi.

Yozuvchi katta mahorat ila feodal voqe'likning chinakam ziddiyatlarini ochib bergan. Moddiy va madaniy boyliklarning yaratuvchisi sifatida xalq bir tarafdan davlatchilik qo'riqchisi va himoyachisi, boshqa tarafdan, xonning jamiyat negiziga qarshi chiqib, zolimlarga qarshi qo'zg'alol ko'taradi. Shuningdek, xalqni katta soliqlar bilan ko'mib tashlagan hukmdorlarga qarshi chiqadi.

Romanning markaziy ixtilofi - ota va o'g'il o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlar. Yosh Otabek "oila qurish" borasida ota-onasining topgan qiziga uylanib an'analariga

qarshi qat'iyatli nuqtai nazarli yosh yigit, uning otasi Yusuf xoja eski tuzumdag'i dunyo qarashli, qadimiy an'analar tarafidori. Biroq, muallif ushbu oilaviy mojarolarni alohida voqealisa sifatida emas, umummillatli holat ko'rinishida bayon etadi.

Otabek va Kumush timsoli - o'zbek adabiyotidagi yangi hodisadir. Otabek boy oilaning farzandi, o'qimishli inson bo'lib, dunyonı o'ziga xos tarzda tushunadi, o'tkir adolat hissiga ega. Kumush unga manzur kelgan. U yaxshi tarbiyalangan, o'qimishli, tug'ma aql sohibasi, kelishuvchan. U Otabekni chin dildan sevadi. Ammo bu sevgi unga baxtsizlik keltiradi, zero, u eski an'analarga bo'ysunib, yaqinlari uning tuyg'ulariga quloq tutmaydi.

Uning ma'naviy sifatlari, go'zalligi va boy ichki dunyosining shakllanishiga haqiqiy o'zbek ayoliga xos oljanoblik orzularini o'zida mujassam etgan onasi Oftob oyim sabab bo'lgan. U aqli, xotirjam, bosiq, sezgir ona, haqiqatparvar inson, chaqqon beka. Shunga qaramay, Oftob oyim eski udumlar tarafidori - u erining istaklariga, irodasi va fikriga bo'ysunadi.

Ijodiy ishlari

"O'tgan kunlar" (roman), "Mehrobdan chayon" (roman), "Obid ketmon" (qissa), "Girvonlik Mallaboy", "Xotinboz", "Baxtsiz kuyov", "Millatimga", "Yovuz ruhlar iskanjasida".

Mukofotlari

1991 yil 25 avgust kuni O'zbekiston prezidenti farmoni bilan "Mustaqillik" ordeniga sazovor bo'lgan.

Ekranizatsiyalari

1969 – "O'tgan kunlar", rejissyor Yo'ldosh Agzamov, bosh rolda O'lmas Alixo'jayev

1973 – "Zulmatdan qochish". "Mehrobdan chayon" romani asosida. Rejissyor Yo'ldosh Agzamov. senariy muallifi S. Muhamedov, operator — A. Pann. Rollarda: I. Ergashev, T. Shokirova, A. Xo'jayev, Sh. Irgashev, Ya. Ahmedov, N. Rahimov.

1997– O'tgan kunlar", rejissyor M. Abzalov, bosh rolda B. Muhamatkarimov.

Alovida ta'kidlash kerakki, Abdulla Qodiri yozgan asarlar xususida o'sha davrning Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Miyonbuzruk Solihov kabi munaqqidlari matbuotda turli yo'sinda fikr bildirishdi. Sotti Husayning "O'tkan kunlar" romani tanqidiga bag'ishlangan alovida kitobi bosildi. Oybek esa "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" nomli maxsus tadqiqot yozdi.

Abdulla Qodiri adabiy merosi o'zidan keyingi o'zbek adiblari ijodi uchun mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Qardosh xalqlarning romannavislari adibni o'zlariga ustoz sifatida e'tirof etishdi. O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiri hayoti va ijodiga oid I. Sulton, M. Qo'shjonov, U. Normatov, A. Aliyev, I. Mirzayev, F. Nasriddinov, S. Mirvaliyev, N. Karimov, Sh. Turdiyev, A. Rasulov, X. Umurov, X. Ismatullayev, S. Meliyev, Sh. Rizayev, A. Ulug'ov, M. Qarshiboyev, X.

Lutfiddinova, I. G'aniyev, A. Boboniyozov, S. To'laganova, A. Qahramonov, L. Toshmuhammedova va boshqa turli avlodga mansub olimlarning kitoblari, o'nlab ilmiy maqolalari, maxsus tadqiqotlari maydonga keldi. Abdulla Qodiriy merosini to'plash va chop etishda adibning to'ng'ich farzandi Habibulla Qodiriyning xizmatlari taqsimga sazovar. Adib avlodlari – H. Qodiriy "Otam haqida", "Qodiriyning so'nggi kunlari", Sh. Qodiriy "37-xonodon" kabi o'z ota-bobolari to'g'risida qimmatli kitoblar yozishdi. O. Yoqubov, P. Qodirov, T. Malik, O'. Hoshimov, X. Sulton, X. Do'stmuhammad, N. Boqiy va boshqa o'zbek adiblarining e'tiborga molik adabiy maqolalari, suhbatlari, badiiy asarlari paydo bo'ldi. Shuningdek, qodiriyshunos sifatida N. Tun, I. Baldauf, Z. Klaynmixel, E. Olvort, X. Murfi, E. Nabi, A. Merxan kabi xorijlik olimlar adib ijodi yuzasidan tadqiqotlar olib borishdi.

Xullas, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rghanish, adib ijodiy merosidan, xususan, "O'tkan kunlar" romanidan bahramand bo'lish – bu doimo davom etadigan, avlodlar nazdida yangilanib turadigan sog'inchli, ayni damda, o'tmishga aylanmaydigan adabiy va abadiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Abdulla Qodiriy haqida fikrlar

Abdulla Qodiriy XX asr O'zbek adabiyotida realistik romanchilikni boshlab berdi.

A.Aliyev

Qodiriy iste'dodining kuchi shu darajada ko'lamli ediki, u nafaqat o'zbek romanchiliga asos soldi, nafaqat Behbudiy, Fitrat, Hamza va Cho'lponlar bilan birgalikda yangi o'zbek adabiyoti tamal toshini qo'ydi.

Erkin Vohidov

"Kishi umrida o'qigan kitoblar ichida shundoq kitoblar bo'ladiki, ular umrining bir qismiga, inson o'zligining tarkibiga aylanib qoladi". "O'tgan kunlar" va "Mehrobdanchayon" men uchun ana shunday kitoblardan.

Erkin Vohidov

Qodiriy asarlari, nazarimda, proza emas, poeziyadir. Ular she'rdek o'qiladi.

Erkin Vohidov

Bu kitobni bir marta emas, besh marta o'qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, tarixni, hayotni, tilni o'rganasiz. (O'tkan kunlar romani haqida)

Ergash Rustamov

«Uning 1923 yildan so'ng bosilgan «O'tkan kunlar» nomli zo'r bir romani uch bo'lim bo'lib nashr etildi. Mundarijasи Xudoyorxon diyoridan olib yozilgan bu romanni o'qigan chog'ingda, o'zingni butunlay shu diyorning qaxramonlari orasida his qilasan...»,

Zarif Bashir

Abdulla Qodiriy jahon bilgich, jahon kamtar, xushsuhbat va bor-yog'i butun sahiyasi va siyosidan ayon, bir gaplik, o'ziga o'ta ishongan, zabardast qalamkash edi.

Mirtemir

Abdulla Qodiriy asarlari O'zbek xalqi baxtiga yaratilgan, so'z san'ati mo'jizalaridir.

Mirtemir

«Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi...»

Muxtor Avezov

U har bir obrazning o'ziga yarasha so'z tanlay bilar, kim to'g'risida yozadigan bo'lsa, xuddi o'sha shaxsning o'zi bo'lib ketar edi.

Mo'minjon Muhammadjon o'g'li Toshqin

Dunyoda beshta, ya'ni fransuz, rus, ingliz, nemis va xind romanchilik maktablari bor edi. Endi oltinchisini, ya'ni o'zbek romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi.

Professor Yevgeniy Eduardovich Bertels

Abdulla Qodiriy O'zbek realistik prozasining shakllanishida, uning ibtidiy bayonidan jonli tasvirga o'tishda, o'zbek adabiy tilining muayyan normaga tushishida katta rol o'yungan san'atkordir.

M.Qo'shjonov

Abdulla Qodiriy ta'rifi – adib, unvoni – inson, sevgani – xalq, hayoti – abadiy zot bo'lib qolgani haqiqat.

Xondamir Qodiriy

«Абдулла Кадыри, как сатирик, в народном духе решил творческие вопросы, стоявшие перед ним, используя при этом наследие народного искусства»

Иzzat Султон, драматург

«Чтобы увидеть величие гор, надо отойти от них на расстояние, то же происходит с оценкой свершений и личностей великих людей. Чтобы увидеть и осознать величие, непреходящую ценность творчества Абдуллы Кадыри потребовалось более полувека. »

Иzzat Султон, драматург

«Романы Абдуллы Кадыри всем своим строем, всем своим своеобразным стилем являются узбекскими романами. Мировой литературе известны пять школ романа: французская, русская, английская, немецкая и индийская. Теперь шестую, а именно узбекскую, школу романа создал Абдулла Кадыри»

Е. Бертельс Академик, востоковед

«Абдулла Кадыри – писатель эпического размаха, мастер масштабного творчества, художник-реалист в высоком значении этого слова»

Ойбек, писатель и поэт

«Второе качество, которое необходимо изучать молодёжи – это смех.

В творчестве Кадыри можно найти смех от обычной улыбки до убивающее едкого юмора. Сатира Кадыри очень сильна. В использовании метода пародии, он не отстает от Рабле или Свифта. В сатире Кадыри есть еще одна особенность - объективность. Кажется, будто писатель безразличен, говорит сам герой, говорит, пьянясь своими словами...»

Мухаммад Дуст, писатель

Tuman AKM mutahassislari uchun maxsus tavsiyaviy ro'yhat

Ko'rgazmalar:

Shaxsga oid ko'rgazma - «Abdulla Qodiriy tarixiy romanlar ustasi»

Bir kitob ko'rgazmasi – «O'tkan kunlarga qaytib», «Mehrobdan chayon mo'jizasi»

Munozara ko'rgazma - «Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh ifodasi». «Abdulla Qodiriyning asrlarga hamnafas ijodi»

Asar kahramonlari ko'rgazmasi - «Otabek, Kumush va Zaynabning taqdirlari» («O'tkan kunlar»), «Anvar va Ra'nuning achchik qismatlari»

Booktreyler - «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»

Tadbirlar:

Adabiy-badiiy kecha - «Abdulla Qodiriy idodiy merosiga ehtirom», «Abdulla Qodiriy marosi – yoshlar ez'ozida! »

Badiy kecha - «Abdulla Qodiriy qo'msak»

Badiy munozara kechasi - «Abdulla Qodiriy asarlarida xalq og'zaki ijodi an'analari»

Bibliografik obzor - «Qodiriy ijodiga bir nazar»

Blits-turnir - «Qodiriy asarlari bilimdoni»

Davra suhbati - «Qodiriyni anglash», «Qodiriyning ajoyib siymosi», «Qodiriyni o'qiganda»

Ijodiy ushrashuv - «Buyuk romanavis adib»

Kitob benefisi - «O'tkan kunlarga qaytib», «Mehrobdan chayon»

Kitobxon konferensiyasi - «Qodiriyni qo'msab», «Qodiriy mahoratining ajib qirrasi»

Taqdimot - «Abdulla Qodiriy - satira ustasi», «Abdulla Qodiriyning ijodiy javohirlari»

Viktorina - «Abdulla Qodiriy asarlarini bilasizmi?»

Abdulla Qodiriy asarlari o‘zbek tili

1992

Қодирий, А. Ўткан кунлар; Мехробдан чаён [Матн] : ромонлар /А. Қодирий . – Тошкент : Ғафур Гулом номидаги нашриёт – матбаа бирлашмаси, 1992. – 528 б. – 15000 нусха. – ISBN 5-635-01123-3.

1993

Қодирий, А. Тошпўлод тажанг нима дейди? [Матн] / А. Қодирий. – Тошкент : А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 106 б.

1995

Қодирий, А. Ижод мاشаққати [Матн] : бадиий ижод тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар/ А. Қодирий ; муҳаррир М. Аҳмедов. – Тошкент : Ўқитувчи, 1995. – 14 б. – 15000 нусха.

2007

Қодирий, А. Диёри бақр [Матн] : [Шеърлар, ҳикоялар, саҳна асарлари, ҳангома, фельетон ва мақолалар] / А. Қодирий : Тўплаб нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи Х. Қодирий. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2007. – 472 б. – 100 нусха. – ISBN 978-9943-08-196-3.

2009

Қодирий, А. Ўткан кунлар [Матн] : тарихий роман / А. Қодирий ; муҳаррир Г. Ҳайтова. – Тошкент : Шарқ, 2009. – 400 б. – 10000 нусха.

2010

Қодирий, А. Мехробдан чаён [Матн] : роман / А. Қодирий ; муҳаррир Ш. Эргашева. – Тошкент : Шарқ, 2010. – 288 б.

2011

Qodiriy, A. She’rlar [Matn] : [Hikoya va ocherklar; hajviyalar] / A. Qodiriy ; mas’ul muharrir : N. Karimov. – Toshkent : O’qituvchi, 2011. –160 b. – ISBN 978-9943-02-379-6. 4.

2013

Жулқунбой. Муштум таърифида [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг 1923 йиллардаги муаммолар ҳақида ёзганлари] / Жулқунбой // Муштум. – 2013. – №2. – Б. 1.

2014

Қодирий, А. Танланган асарлар [Матн] / А. Қодирий. – Тошкент : «Шарқ», 2014. – 880 б . – ISBN 978-9943-26-151-8

2015

Қодирий, А. Ёзувчи бўламан деган киши... [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг “Умр ибрати” ҳақида ёзганлари] / А. Қодирий// O’zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2015. – 10 апр.

2017

Қодирий, А. Мехробдан чаён [Матн] : роман / А. Қодирий. – Қайта нашр.– Тошкент : Янги аср авлоди, 2017. – 328 б.

Abdulla Qodiriy asarlari rus tilida

1935

Қадыри, А. Абид Кетмень [Текст] : Повесть из колхозной жизни / Абдулла Кадыри ; Авториз. пер. с узбек.. Л. Соцердотовой. - Ташкент : Гос. изд-во УЗССР, 1935. – 298 с

Қадыри, А. Берды Татар [Текст] / А. Кадыри ; Пер. с узбек. Л. Соцердотовой. – Ташкент : Гос. изд-во УзССР, 1935. – 23 с

Қадыри, А. Про лису и чудака [Текст] / А. Кадыри ; Пер. с узбек. Л. Соцердотовой. – Ташкент : Гос. изд-во УзССР, 1935. – 43 с. – 17 см.

1964

Қадыри, А. Скорпион из алтаря [Текст] : роман / А. Кадыри ; [пер. с узб. Д. Бать, В. Смирновой]. – Москва : Худож. лит., 1964. – 271 с

1968

Қадыри, А. Die Liebenden von Taschkent [Текст] : Historischer Roman / Abdulla Kodiri ; Aus dem Russischen von Arno Specht ; Mit einem Nachwort von Nyota Thun. - Berlin : Kultur und Fortschritt, 1968. - 361 с

1983

Қадыри, А. Источник любви [Текст] : [Стихи] / Абдулла Кадыри. – Душанбе : Ирфон, 1983. – 47 с

1984

Қадыри, А. Минувшие дни [Текст] : Исторический роман/ Абдулла Кадыри. - Ташкент : Уқитувчи, 1984. – 399 с. – 20 см.

1987

Қадыри, А. Звездный час учителя : [Опыт работ лучших учителей Таджикистана] / А. Кадыри, Н. Зуробеков. – Душанбе : Маориф, 1987. – 55,[1] с

Қадыри, А. Маллавой из Гирвана [Текст] : [Повести, юмореска, очерк, ст. и фельетоны] / Абдулла Кадыри; Художник : Д. Рахматов. – Ташкент : Изд-во лит. и искусства, 1987. – 350,[1] с

Қадыри, А. Скорпион из алтаря [Текст] : Ист. роман из жизни Худоярхана и его чиновников / Абдулла Кадыри. – Ташкент : Уқитувчи, 1987. – 235,[6] с. – портр.; 20 см. – 60 к.

2015

Қадыри, А. Минувшие дни / А. Кадыри. – Ташкент : Узбекистон, 2015. – 368 с. – ISBN 978-9943-28-276-6

Тожибоева, М. Адабий умр боқийлиги : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий ижодига бағишиланади] // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2015. – 10 апр.

Abdulla Qodiriy haqida asarlar o‘zbek tilida

1979

Ойбек. Асарлар [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг ижодий йўли] / Ойбек . – Тошкент, 1979

1984

Климович, Л. Ўзбек романчилигининг қалдирғочи [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 90 йиллигига бағишиланади] / Л. Климович // Гулистон. – 1984. – №3. – Б. 24-25.

Қўшжонов, М. Нажот излаганлар [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 90 йиллигига бағишиланади] / М. Қўшжонов // Гулистон. – 1984. – №4. – Б. 18-20.

1986

Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида [Матн] / [туплаб нашр тайёрловчи Х. Қодирий] . – Тошкент : Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 . – 175 б

1989

Абдулла Қодирий айвонида [Матн]: [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудига бағишиланади] // Гулистон. – 1989. – №3. – Б. 16.

Султонов, X. Андиша [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 95 йиллигига бағишиланади] / X. Султонов// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1989. – 8 дек.

Қодирий, Ш. 1937 йил, 31 декабрь кечасида [Матн] : [Ёднома, Абдулла Қодирийни эслаб] / Ш. Қодирий // Тошкент оқшоми. – 1989. – 30 дек.

Яҳёев, А. Абдулла Қодирий таҳсил қўрган даргоҳ [Матн] / А. Яҳёев // Тошкент оқшоми. – 1989. – 8 дек.

1990

Норматов, У. Фифон [Матн] : “Қодирийнинг сўнгги кунлари” хотира-қиссаси хусусида / У. Норматов // Ёшлик. – 1990. – №6. – Б. 50-55.

Саматов, А. “Қодирийнинг сўнгги кунлари”ни ўқиб... [Матн] / А. Саматов // Ёшлик. – 1990. – №1. – Б. 43.

Турдиев, Ш. Дўстлар қалбida [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 95 йиллигига бағишиланади] / Ш. Турдиев // Совет Ўзбекистони. – 1990. – 4 янв.

Қўшжонов, М. Бизнинг Қодирий [Матн] : [Ушбу мақола сўз устаси Абдулла Қодирийга бағишиланади] / М. Қўшжонов // Совет Ўзбекистони. – 1990. – 12 янв.

1991

Абдуллаев, М. Гулларнинг сардори эдилар [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 97 йиллигига бағишиланади] // Ёш ленинчи. – 1991. – 10 апр.

Абдуллаев, М. Миришкор, тадбирли, ишбилармон эдилар [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг 97 йиллиги олдидан] / М. Абдуллаев // Тошкент ҳақиқати. – 1991. –9 апр.

Абдуллаев, М. Табаррук зотлар [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг 97 йиллиги олдидан] / М. Абдуллаев // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1991. – 5 апр.

Зайниддинова, М. Ҳақиқат бор экан [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг 97 йиллиги олдидан] / М. Зайниддинова // Тошкент ҳақиқати. – 1991. –9 апр.

Тухватуллина, Э. Қодирийнинг ҳар бир сўзи – соғинч тори [Матн] : [Ушбу мақола сўз устаси Абдулла Қодирийнинг 97 йиллигига бағишиланади] / Э. Тухватуллина // Ёш ленинчи. – 1991. –12 авг.

Фаниев, Р. Ёзувчига муҳаббат рамзи [Матн] : [Абдулла Қодирийга бағишиланган расмлар] / Р. Фаниев // Тошкент ҳақиқати. – 1991. – 6 авг.

Қодирий, Ш. Абдулла Қодирийнинг ўксик жавоби [Матн] : [Ёднома] / Ш. Қодирий // Тошкент оқшоми. – 1991. –14 фев.

1992

Абдуллаев, М. Худоёрхоннинг васияти [Матн] : [Абдулла Қодирийнинг 100 йиллиги олдидан] / М. Абдуллаев // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1992. – 3 апр.

Абдуллаев, О. Адибнинг аччиқ қисмати [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирийга бағишиланади] / А. Алиев // Гулистон. – 1992. – №9-10. – Б. 24-25.

Алиев, А. Абдулла Қодирий [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирийга бағишиланади] / А. Алиев // Гулистон. – 1992. – №3-4. – Б. 24-25.

Сайдалиева, Ж. Нурга чўмилган сиймолар [Матн] : [Ушбу мақола буюк адаб Абдулла Қодирийга бағишиланади] / Ж. Сайдалиева // Тошкент оқшоми. – 1992. – 23 янв.

Убайдулла Расулий. Абдулла Қодирийнинг ажойиб сиймоси [Матн] : [Яхшилар ёди] / Убайдулла Расулий // Тошкент оқшоми. – 1992. – 1 окт.

Қодиров, П. Абдулла Қодирий қаҳрамонлиги [Матн] : [Ушбу мақола буюк адаб Абдулла Қодирийга бағишиланади] / П. Қодиров // Ўзбекистон овози. – 1992. – 11 апр.

Юнус Мақсудий. Қодирий, Чўлпон ва бошқалар [Матн] / Юнус Мақсудий // Шарқ юлдози. – 1992. – №12. – Б. 166 – 173.

1994

Абдулла Қодирий абадияти [Матн] : [Абдулла Қодирийга адаб номи билан аталувчи боғга ёдгорлик ўрнатилди] // Тошкент оқшоми. – 1994. – 7 дек.

Аъамов, Қ. “Ўткан кунлар”нинг юлдози [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / Қ. Аъамов // O'zbekiston adabiyoti va san`ati. – 1994. – 8 апр.

Бадалов. М. Ёзувчи санъати [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / М. Бадалов // Тошкент оқшоми. – 1994. – 5 дек.

Махмудов, Т. Нур ичидаги сиймо [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / Т. Махмудов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – 9 дек.

Норматов, У. “Орттирмай ва камитмай”... [Матн] : [Буюк романнафис Абдулла Қодирий ҳаёти ва фаолияти ҳақида] / У. Норматов // Шарқ ўлдузи №11-12. – 1994. – Б. 159-167.

Темур Убайдулло. Асрларга ҳамнафас ижод [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / Темур Убайдулло // Тошкент оқшоми. – 1994. – 5 дек.

Темур Убайдулло. Тонгги мулоқот [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / Темур Убайдулло // Тошкент оқшоми. – 1994. – 12 сент.

Туробов, М. Мехробдан чиққан чаён [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] / М. Туробов // Тошкент оқшоми. – 1994. – 25 март.

Қодирийни қўмсаб [Матн] : ёднома / нашрга тайёрловчи Ш. Қодирий. – Тошкент : А. Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1994. – 80 б. – 20000 нусха.

Ёқубов, О. Ўзбекнинг ардоқли фарзанди [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 100 йиллигига бағишиланади] /О. Ёқубов // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994. – 9 дек.

1995

Муродов, М. Абдулла Қодирий “Алпомиш” ни ўқигами ? [Матн] / М. Муродов // Халқ сўзи. – 1995. – 22 фев.

1996

Норматов, У. Ўткан кунлар ҳайрати [Матн] : Рисола / У. Норматов ; муҳаррир Ҳ. Нуруллаев. – Тошкент : Ўқитувчи, 1996. – 80 б. 6000 нусха. ISBN 5-645-02623-3

1999

Ғулом, Б. “Ўтган кунлар” ни ўқиб [Матн] : [шеър] / Б. Ғулом // Иқбол. –1999. –1 янв.

2001

Абдуллаева, З. Кумушбиби сизни излайман [Матн] : [мutoала оғушидаги ҳаёллар] / З. Абдуллаева // Иқбол. –2001. –15 нояб.

2003

Баходир Карим. Қодирий Қадри [Матн] : Баҳодир Карим ; муҳаррир Абдул Жалил Хўжам. – Тошкент : Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2003. – 84 б. – 500 нусха.

Жўраев, С. Адиб хотираси ёд этилди [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 109 йиллиги кенг нишонланди] / С. Жўраев // Ўзбекистон овози. – 2003. – 15 апр.

2004

Абдулла Қодирий [Матн] : тўплам / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий. – Тошкент : Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2004. – 32 б. 1000 нусха

Жабборов, Н. Қодирийни англаш [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 110 йиллигига бағишиланади] / Н. Жабборов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2004. – 9 апр.

Мирвалиев, С. Абдулла Қодирий [Матн] / С. Мирвалиев. – Тошкент : Фан, 2004 . – 176 б. – ISBN 5-648-02981-0

Норматов, У. Қалб драмаси ва нафосати [Матн] : [Абдулла Қодирий таваллудининг 110 йиллигига бағишиланади] / У. Норматов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2004. – 5 март.

Хорижда Абдулла Қодирий кечаси : [Истанбулда Абдулла Қодирий таваллудининг 110 йиллигига бағишиланган кеча бўлди] // Ҳалқ сўзи. – 2004. – 10 март.

Ҳаққулов, И. Мактаби бетакрор [Матн]: [Ушбу мақола Абдулла Қодирий таваллудининг 110 йиллигига бағишиланади] / И. Ҳаққулов // ISHONCH. – 2004. – 10 апр.

2009

Тошматова, Г. Он ҳазратнинг отган ўқлари [Матн] : [“Мехробдан чаён” асари ҳақида] // Ёғду. –2009. – 9 апр.

2010

Аҳмедов, М. “ Қодирий билан ҳамсуҳбат бўлганмиз...” : [Л. Абдуллаев, Ҳ, Раҳмонов, М, Набиевларнинг Абдилла Қодирий ҳақида хотиралари] / М. Аҳмедов // Ишонч. – 2010. – 4 ноябр.

Норматов, У. Қодирий мўъжизаси [Матн]: тадқикот, кайд, сухбат ва мулоҳазалар / У. Норматов. – Тошкент : O'zbekiston, 2010. – 271 б . – ISBN 978-9973-01-575-3

Султонов, Ў. Қодирийни илҳомлантирган асар : Такриз // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2010. – 24 дек.

Тоштанов, М. “Ўткан кунлар” ни ўқиб [Матн] : [шеър] // Ёғду. –2010. –7 янв. – Б.12

Усмонов, Э. Ўтган кунлар қандай яратилган эди? [Матн] : / Э. Усмонов // 7x7. –2010. –11 фев.

Курбонов, А. Қодирий йифлаган кун [Матн] : [10 апрель. – А. Қодирий таваллуд топган кун] / А. Курбонов // Асака оқшоми. – 2010. – 8 апр.

2011

Исмоилов, М. Отабек Туркистон тимсоли [Матн] : [“Ўтган кунлар” асари ҳақида] / М. Исмоилов // Холис. – 2011. – 16 нояб.

2012

Усмонов, Э. Авлодлар анъанаси : [Ушбу мақолада Эркин Усмоновнинг Қодирийлар авлоди ҳақидаги хотиралари баён қилинган] / Э. Усмонов // Шарқ зиёси. – 2012. – 6 дек.

2013

Каримов, Б. “Ўткан кунлар”га қайтиб : [Абдулла Қодирий романни ҳақида] / Б. Каримов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2013. – 12 апр.

Каримов, Н. Абдулла Қодирий ва Тошкент адабий муҳити [Х. Қодирийнинг отаси Абдулла Қодирий ҳақидаги хотиралари] / Н. Каримов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2013. – 1 нояб.

Эшбоева, Ф. Қодирий маҳоратининг ажиб қирраси [Матн] : [Абдулла Қодирий ижодида ҳалқ оғзаки ижоди] // Илмий хабарнома = Научный вестник. – 2013. – № 2. – Б. 68-69.

Норматов, У. Қодирийнинг сўнгги илтижоси : [Адаб ҳаётининг ўқилмаган сахифалари] / У. Норматов // Шарқ юлдузи. – 2013. – №1. – Б. 142-144.

2014

Баходир Карим. Ўткан кунлар жозибаси : [Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романни ҳақида] / Баҳодир Карим // Ҳидоят. – 2014. – №4. – Б.18

Каримов, Б. Уйғун матн зарурати : [Ушбу мақола Абдилла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романни ҳақида] / Б. Каримов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2014. – 11 июл.

Фафуров, И. Қодирий сиймоси [Мақола Абдулла Қодирий ижодига бағишиланади] / И. Фафуров // Kitob dunyosi. – 2014. – 28 май.

2016

Иброҳим Ҳаққул. “Мехробдан чаён” романида маънавий мағлубият тасвири [Матн] / Иброҳим Ҳаққул // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2016. – №2. – Б. 13 - 20.

Каримов, Б. Чанги қоқилмаган манбалар ёхуд Абдулла Қодирийнинг “Озиқ ишлари” хусусида [Матн] : [Ушбу мақола Абдулла Қодирийнинг “Озиқ ишлари” газетасида фаолият юритгани ҳақида] / Б. Каримов // O`zbekiston adabiyoti va san`ati. – 2016. – 15 апр.

Каримов, Н. Қодирийшунослик [Матн] : [ютуқлар, муаммолар, мулоҳазалар] : / Н. Каримов / Kitob dunyosi. – 2016. – 9 нояб.

Лафасов, Ў. Абдулла Қодирий асарларида ҳалқ оғзаки ижоди анъаналари [Матн] : [Абдулла Қодирий асарларида китобхонлар оммасига

халқимизнинг миллий хусусиятларини ёритиб берган] / Ў. Лафасов // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2016. – №2. – Б. 85 - 88.

Ҳабибулла Қодирий. Отам ҳақида [Матн] : [Ҳабибулла Қодирийнинг “Отам ҳақида” китоби ҳақида] / Ҳабибулла Қодирий // Шарқ зиёси. – 2016. – 11 авг.

2017

Кодиров, У. Абдулла Қодирий психологияси [Матн] : Мутахассис минбари/ У. Кодиров // Ma'rifat. – 2017. – 18 ноябрь

Умиров, Ҳ. Қодирийшуносликнинг янги саҳифаси [Матн] : [Ушбу мақолада Абдулла Қодирий ҳақида сўз юритилади] Ҳ. Умиров – 2017. – 26 июл.

Эгамова, Ҳ. Мозийга қайтиб иш кўриш хайрлик дейдилар [Матн] : [Ушбу мақолада Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар”асари ҳақида сўз юритилади] Ҳ. Эгамова /Шарқ зиёси – 2017. – 26 янв.

2018

Юнусова, Н. Қодирий ижодига бир назар [Матн] : [Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижоди тўғрисида] / Н. Юнусова // Andijon tongi. – 2018. – 21 июль

Abdulla Qodiriy haqida asarlar rus tilida

1977

Абдурахманова, М. Ю. Мастерство психологического изображения в творчестве Абдуллы Кадыри [Текст] : Автореф. дис. на соиск. учен. степени канд. филол. наук : (10.01.03) / АН УзССР. Ин-т яз. и литературы им. А.С. Пушкина. – Ташкент : [б. и.], 1977. – 21 с.

1979

Бегжанова, М. Гоголь и Абдулла Кадыри [Текст] : В помощь учителю . - Ташкент : Укитувчи, 1979. – 31 с.

1985

Каххарова, Ҳавхон. Фразеология Абдуллы Кадыри [Текст] : диссертация ... кандидата филологических наук : 10.02.02. – Ташкент, 1985. – 273 с. : ил.

1994

Короткая жизнь и вечная память // Андижанская правда. –1994. –10 дек.

2006

Косымова, З. О переводе романа «Минувшие дни» [Проблемы перевода] / З. Косымова // Преподавания языка и литературы. – 2006. – № 6. – С. 67-79.

2010

Косымова, З. Мир и человек эпохи глобализации[Текст] : [По произведениям А. Фитрата, А. Кадыри и А . Чулпана] / З. Косымова // Звезда Востока. – 2010. – № 2. – С. 139-152.

Хамраева Р. Абдулла Кадыри и узбекское кино [Текст] / Р. Хамраева // Звезда Востока : журнал. — Ташкент : Союз писателей Узбекистана . — 2010. — № 2. — С. 132-134.

2014

Хамраев, Ф. У истоков узбекского романа [Творчество А. Кадыри] / Ф. Хамраев // Правда Востока. — 2014. — 11 июля

Abdulla Qodiriy haqida internet resurs ma'lumotlari

Убайдуллаева З. А. Абдулла Кадыри - мастер сатиры // Молодой ученый. — 2014. — №11. — С. 349-352. —<https://moluch.ru/archive/70/11918/>

Убайдуллаева, З. А. Абдулла Кадыри — мастер сатиры // Молодой ученый. — 2014. — №11. — С. 349-352. —<https://moluch.ru/archive/70/11918/>

Karimov, B. Abdulla Qodiriy haqida [Elektron resurs] // Jahon adabiyoti jurnali. — 2013. — №4. — <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/>

Xamdamov, U. She'riyatimizda Qodiriy an'analari [Elektron resurs] // Sharq yulduzi. — 2014. — №4. — <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/sheriyatimizda-qodiriy-ananalari/#>

Normatov, U. Qodiriyning so'nggi iltijosi [Elektron resurs] // Xurshid Davron kutubxonasi. — 2018. — <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umarali-normatov-qodiriyning-songgi-iltijosi-2.html>

Xurshid Do'stmuhammad. Ikki maqola & Abdulla Qodiriy va hayot. Ochiq dars & Ikki audiokitob [Elektron resurs] // Xurshid Davron kutubxonasi. — 2019. — <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xurshid-dostmuhammad-abdulla-qodiriy-haqida.html>